

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Р.З.Хайров	
Интеграция Adobe Photoshop и платформ Google Arts & Culture в образовательный процесс будущих педагогов изобразительного искусства	106
X.A.Madaminov	
Turli yosh toifasidagi yunon-rum kurashchilarini morfofunktsional ko'rsatkichlarini o'rganish tahlili	114
S.T.Xakimov, M.N.Murodova	
10–12 yoshli qizlar orasida chim ustida xokkey bo'yicha jismoniy chidamlilikni oshirish metodikasi.....	120
A.N.Qosimov	
Sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish: ijtimoiy-pedagogik asoslar va zamonaviy yondashuvlar.....	125
S.T.Xakimov, K.M.Uktamova	
Gimnastika darslari misolida nodavlat ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion metodlarni tatbiq qilish	130
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	134
Z.N.Usmonov	
Ixtiyoriy harakatlar va ularning fiziologik mexanizmi	140
A.I.Tuychiyev	
Maktab yoshidagi o'quvchilar organizmida funksional faollikni ta'minlovchi asosiy omillar.....	145
Sh.D.Ismoilov	
Jismoniy harakatlarning mazmuni va strukturasining nazariy asoslari	151
T.T. Yusupov	
Inson jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligining o'lchamlari tahlili	156
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini oshirish kasbiy muvaffaqiyat asosidir.....	162
M.X.Komilova	
G'arb ilmiy tadqiqotlarida onomastikasining pedagogik ahamiyati	168
N.R. Mansurova	
Milliy musiqiy merosni asrab-avaylashning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	172
A.K.Yusupova N.A.Aliyev	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini rivojlanishning ba'zi masalalari	180
G.Sh. Latipova	
Malaka oshirish tizimi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari	184
N.O. Xaydarova	
Tibbiyot OTMlari o'quv jarayonida bo'lajak shifokorlarning reflektiv madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
М.М.Боркошев	
Влияние тренерского стиля на социализацию юных спортсменов в командных видах спорта.....	195
S.S.Ubaydullayev	
Talabalarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	199
Z.N.Ortiqova	
Kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ularning assotsiativ fikrlashga ta'siri	203
М.М.Умаралиева	
Развитие самостоятельного обучения в высшем образовании с помощью интерактивных мультимедийных инструментов	207
Z.N.Ortiqova, Sh.M.Yigitaliyeva	
Boshlang'ich sinflarda umumlashtiruvchi dars tushunchasi va uning maqsadlari	211
H.A.Saipova, X.I.Obidova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentligini rivojlantirishda hikoyaning o'rni.....	215



UO'K: 37.022 (37.02)

**TIBBIYOT OTMLARI O'QUV JARAYONIDA BO'LAJAK SHIFOKORLARNING
REFLEKSIV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI****ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ
ВРАЧЕЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ****THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF THE REFLECTIVE
CULTURE OF FUTURE DOCTORS IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF MEDICAL
UNIVERSITIES**

Xaydarova Nigora Obidovna 
Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarda refleksiv madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasi tahlil qilinadi. Refleksiv madaniyat – shaxsning o'z bilim, ko'nikma va faoliyatiga ongli yondashuvi, ularni tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga intilish holati sifatida qaraladi. Tadqiqotda ushbu madaniyatni rivojlantirishda bosqichma-bosqich yondashuvning ahamiyati asoslab beriladi: ehtiyojni aniqlash, tayyorgarlik, faol refleksiya, yakuniy shakllanish va o'zini rivojlantirish bosqichlari izchil tarzda bayon etiladi. Har bir bosqichda qo'llaniladigan pedagogik metodlar, vositalar, didaktik sharoitlar va ta'lim mazmuni talabaning refleksiv tafakkurini shakllantirish va chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tibbiyot yo'nalishi talabalarining kasbiy shakllanishida refleksiya jarayonining o'rni va uning madaniy darajaga aylanishi alohida urg'u bilan ko'rsatilgan. Maqolada, shuningdek, chet tili darslarida refleksiv texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarni fikrlash jarayonini tahlil qilish va o'zini baholash kompetensiyasini shakllantirish hamda o'quv jarayonida faol ishtirok etishga yo'naltirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Xulosa qilib aytganda, refleksiv madaniyatni rivojlantirish pedagogik jarayonning uzviy qismi bo'lib, u talabalarning mustaqil fikrlash, ongli qaror qabul qilish, kasbiy kompetensiyalarni egallash va shaxsiy o'sishga erishishlarida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Аннотация

В данной статье анализируется технология формирования и развития рефлексивной культуры у студентов. Рефлексивная культура рассматривается как осознанное отношение личности к собственным знаниям, умениям и деятельности, стремление к их анализу, оценке и совершенствованию. В исследовании обоснована значимость поэтапного подхода к развитию этой культуры: выявление потребности, подготовка, активная рефлексия, итоговое формирование и саморазвитие. На каждом этапе используются соответствующие педагогические методы, средства, дидактические условия и образовательное содержание, направленные на развитие рефлексивного мышления студентов. Особое внимание уделяется значению процесса рефлексии в профессиональном становлении студентов медицинского профиля и её трансформации в элемент профессиональной культуры. Также рассматриваются возможности применения рефлексивных технологий на занятиях по иностранному языку для развития навыков самоанализа, самооценки и активного включения студентов в учебный процесс. В заключение подчеркивается, что развитие рефлексивной культуры является неотъемлемой частью педагогического процесса и важным фактором в формировании способности студентов к самостоятельному мышлению, принятию осознанных решений и профессиональному росту.

Abstract

This article examines the technology of forming and developing students' reflective culture. Reflective culture is viewed as an individual's conscious attitude toward their own knowledge, skills, and activities, and their desire to analyze, evaluate, and improve them. The study substantiates the significance of a step-by-step approach to developing this culture, including the stages of need identification, preparation, active reflection, final formation, and self-development. At each stage, appropriate pedagogical methods, tools, didactic conditions, and educational content are used to enhance students' reflective thinking. Particular emphasis is placed on the importance of the reflection process in the professional development of medical students and its transformation into a component of professional culture. The article also discusses the potential of using reflective technologies in foreign language lessons to develop self-analysis, self-assessment skills, and to promote active student engagement in the educational process. In conclusion, the development of reflective culture is presented as an integral part of the pedagogical process and a key factor in fostering students' independent thinking, conscious decision-making, and acquisition of professional competencies.

PEDAGOGIKA

Kalit so'zlar: *refleksiv ko'nikmalar, refleksiv madaniyat, maxsus fanlar, kasbiy ta'lim, o'z-o'zini baholash, tanqidiy fikrlash, pedagogik strategiyalar, bo'lajak shifokorning kasbiy kompetensiyasi.*

Ключевые слова: *рефлексивные навыки, рефлексивная культура, специальные дисциплины, профессиональное образование, самооценка, критическое мышление, педагогические стратегии, профессиональная компетентность будущего врача.*

Key words: *reflexive skills, reflexive culture, special disciplines, professional education, self-assessment, critical thinking, pedagogical strategies, professional competence of the future doctor.*

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish, ayniqsa, tibbiyot ta'limini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmonida ko'rsatilganidek, mamlakatimizning ta'lim sohasidagi yangilanishlar va modernizatsiya yo'nalishlarini tasdiqlaydi [1]. Tibbiyot sohasi bo'yicha talabalarni malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash uchun nafaqat texnik bilimlarga, balki tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga, ya'ni refleksiv madaniyatga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Refleksiv madaniyat kasbiy rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, bo'lajak mutaxassislarga o'z faoliyatini baholash, xatolarini tahlil qilish va ularni tuzatish imkoniyatini taqdim etadi. Bu yondashuv, ayniqsa, murakkab kasbiy vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish va tezkor moslashishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Refleksiv madaniyatning o'quv jarayonidagi o'rnini kuchaytirish orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar. Dyuning "refleksiv fikrlash" nazariyasida ta'kidlanganidek, o'quv jarayonida refleksiya talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularning faol ishtirokini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi [2]. Shuningdek, Kolbning tajribaviy o'qitish modeli refleksiv madaniyatni rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning ahamiyatini o'rgatishga qaratilgan bo'lib, talabalarga o'z bilimlarini real vaziyatlarda sinovdan o'tkazish imkoniyatlarini oshirishni maqsad qiladi [3].

Mazkur maqolada biz refleksiv madaniyatni kasbiy ta'lim dasturlariga integratsiya qilishning nazariy asoslarini tadqiq qilishni o'z oldimizga maqsad qilib olganmiz. Tadqiqot refleksiv madaniyatni rivojlantirishning samarali strategiyalarini aniqlash va ularni ta'lim jarayonida amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUHOKAMA

O'zbekistonda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish masalasi ta'lim va pedagogika sohasida keng o'rganilgan. M.Abdullayev ta'lim jarayonida refleksiv o'qitish usuli orqali talabalar o'z bilimlarini tahlil qilish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishning muhim vositasi ekanligini ta'kidlaydi [4]. U o'z tadqiqotlarida refleksiv o'qitish texnologiyalarini kasbiy ta'lim tizimiga integratsiya qilishning afzalliklarini ko'rsatadi. Shuningdek, Sh. Qosimova madaniyatlararo muloqotda refleksiv qobiliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan, bu qobiliyat kasbiy muloqot samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini qayd etgan [5].

MDH davlatlarida refleksiv qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Rossiyalik olim V.A.Slastenin ta'lim jarayonida refleksiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqib, uni o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda asosiy kompetensiyalardan biri sifatida tavsiflaydi [6]. U refleksiya jarayonida o'quvchining faolligini oshirish uchun rolli o'yinlar, vazifalar asosida ta'lim va muammoli vaziyatlarga asoslangan ta'lim texnologiyalarini taklif etadi. A. A. Derkach esa refleksiv qobiliyatni rivojlantirishni kasbiy kompetensiyani shakllantirish bilan bog'laydi va bu jarayonda tahliliy fikrlashni kuchaytirish lozimligini ta'kidlaydi [7].

Xalqaro miqyosda refleksiv qobiliyatning ahamiyati B. Dewey [2], Kolb [3] va A. Schon [8] kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. B. Devey refleksiya ta'lim jarayonining markaziy elementi ekanligini ta'kidlab, talabalarni faol o'rganish jarayoniga jalb qilish uchun refleksiv yondashuvdan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Kolb o'zining tajribaviy o'qitish modelida refleksiya bosqichini asosiy qadam sifatida belgilab, o'quvchilarning tajribalari va bilimlarini real vaziyatlarda sinovdan o'tkazishini taklif qiladi. Schon esa refleksiyani kasbiy faoliyatda muhim o'rin egallagan tushuncha sifatida ko'rib chiqadi va uni qaror qabul qilish jarayonlarida samarali vosita sifatida tavsiflaydi.

METODLAR

Tadqiqotda refleksiv madaniyatni rivojlantirishga doir pedagogik yondashuvlarni o'rganishda tahlil metodidan foydalanildi. Talabalarda refleksiv tafakkurni shakllantirishga oid zamonaviy nazariya va konsepsiyalar ko'rib chiqildi, ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan metodikalar tahlil qilindi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'quv jarayonini anglash va tanqidiy idrok etish darajasini oshirishga qaratilgan an'anaviy va innovatsion usullarning qiyosiy tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, chet tilini o'qitish jarayonida refleksiv ko'nikmalarning rivojlanish dinamikasini kuzatishning empirik usulidan foydalanildi, bu esa pedagogik ta'sirning eng samarali strategiyalarini aniqlash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O'rganishlarimiz davomida shu aniq bo'ldiki, refleksiv madaniyatni rivojlantirish uchun uchta nazariy asoslari ilm-fanda o'z tadig'ini topgan. Birinchidan, zamonaviy o'qitish usullari va texnologiyalarni pedagogik jarayonlarga integratsiya qilish refleksiv fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanishi nafaqat talabalarining qiziqishini oshiradi, balki ularga o'z o'qitish jarayonini chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini ham yaratadi.

Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlarda refleksiya jarayonlarini qo'llash orqali talabalar real hayotdagi kasbiy vaziyatlarga tayyorlanadi. Ayniqsa, klinik holatlar asosida refleksiya qilish o'quvchilarni qaror qabul qilishda tahliliy yondashuvni qo'llashga o'rgatadi. Bu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki talabalarni o'z kasbiy ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga yo'naltirishga yordam beradi.

Shuningdek, talabalarga o'z bilimlarini baholash va rivojlantirish imkonini beruvchi o'z-o'zini baholash mexanizmlari refleksiv madaniyatni shakllantirishda samarali vositalardan biridir. Ushbu mexanizmlar yordamida talabalar o'z yutuq va kamchiliklarini aniqlab, bilim olish jarayonida mustaqil ravishda oldinga siljish yo'llarini belgilay oladilar. Shu bois, o'z-o'zini baholash vositalarining to'g'ri tashkil etilishi talabalarining tanqidiy fikrlashini kuchaytiradi va ularning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi. Ushbu asoslarni quyidagi visual-diagrammada ko'rish mumkin.




Diagramma №1. Talabalarda refleksiv madaniyatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.

Refleksiv madaniyatni rivojlantirish zamonaviy tibbiy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, bu kelgusida tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish va amaliy refleksiya mashg'ulotlarini qo'llash pedagogik samaradorlikni oshiradi. Yuqoridagi vizual diagrammada ko'rganimizdek, refleksiv madaniyatni rivojlantirishda ikki muhim jihat alohida ta'kidlanishi lozim. Birinchidan, talabalarining o'z tajribalarini chuqur tahlil qilish va kasbiy faoliyatni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu talabalarining amaliy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida konstruktiv hamkorlik refleksiv madaniyatni shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu hamkorlik jarayoni talabalarining o'z-o'zini

PEDAGOGIKA

baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularni kasbiy vaziyatlarga tayyorlashga yordam beradi. Shu orqali talabalarning mustaqilligi va ijodkorlik darajasi sezilarli darajada oshadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, refleksiv madaniyatni rivojlantirish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar va ilmiy topilmalar refleksiv yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish imkonini berdi. Jumladan, B. Devey va A. Kolbning refleksiv fikrlash va tajribaviy o'qitish modellari, talabalarning o'z bilimlarini chuqur tahlil qilish va real vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda aniqlangan uchta asosiy yo'nalish – pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish, amaliy mashg'ulotlarda refleksiya jarayonlarini qo'llash va o'z-o'zini baholash mexanizmlarini rivojlantirish – refleksiv madaniyatni shakllantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, masalan, muammoli vaziyatlarga yechim topish orqali o'qitish va loyihaviy ta'lim, talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlarda klinik yoki kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish refleksiv ko'nikmalarni yanada mustahkamlash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'z-o'zini baholash mexanizmlari talabalarni o'z kamchiliklarini tahlil qilish va mustaqil rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga o'rgatadi. Bu mexanizmlar orqali talabalarning mas'uliyat hissi va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari kuchayadi. Shuningdek, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi konstruktiv hamkorlik refleksiv madaniyatni shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Bu hamkorlik talabalarning ta'lim jarayonida faolligini oshiradi va ularni o'z tajribalaridan samarali foydalanishga yo'naltiradi. Umuman olganda, refleksiv madaniyatni rivojlantirish zamonaviy kasbiy ta'lim tizimida talabalar uchun nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki amaliy ko'nikmalarni egallashda ham muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga, tanqidiy tahlil qilishga va kasbiy muammolarni samarali hal qilishga yo'naltirilgan. Shu boisdan, refleksiv madaniyatni rivojlantirish bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy qilish va ta'lim jarayonida refleksiv yondashuvni chuqur integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, "Chet tillarini o'rganish tizimini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida," PF-5847-son Farmon, 2019-yil 8-oktabr.
2. J. Dewey, *How We Think*, Boston: D.C. Heath, 1933.
3. D. A. Kolb, *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*, Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
4. M. Abdullayev, Refleksiv o'qitish texnologiyalari va kasbiy ta'lim, O'zbekiston pedagogika jurnali, vol. 8, no. 2, pp. 45-52, 2021.
5. Sh. Qosimova, Madaniyatlararo muloqotda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish, Til va madaniyat jurnali, vol. 4, no. 1, pp. 12-19, 2020.
6. V. A. Slavenin, *Pedagogik mahorat va refleksiya nazariyasi*, Moskva: Pedagogika nashriyoti, 2019.
7. B. Derkach, Refleksiv qobiliyatni rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, Rossiya pedagogika fanlari akademiyasi jurnali, vol. 6, no. 3, pp. 78-85, 2020.
8. D. A. Schon, *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*, New York: Basic Books, 1983.
9. N. G. Gorbunova and R. T. Rahmatullin, Refleksiv ta'lim yondashuvlari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, Qozog'iston pedagogika ilmiy jurnali, vol. 5, no. 4, pp. 30-39, 2021.